

MUSTAQILLIK YILLARIDA SOVET DAVRI TARIXINING TARIX TA'LIMIDA O'QITILISHI

Qo'chqorov Xamdambek

Samarqand davlat pedagogika insituti

II bosqich tarix yo'nalishi magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mustaqillik yillarida sovet davri tarixining tarix fanida o'qitilishi haqida tavsif berilgan. Mustaqillik yillarida sovet davrining tarix fanida o'qitilish jarayonida bir muncha murakkab jarayonlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga maqolada mustaqillik yillarida ta'lim jarayonidagi o'zgarishlar haqida ham batafsil ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar. *Sovet davri, mustamlakachilik siyosati, tarix, mustaqillik yillaridagi o'zgarishlar, ijtimoiy masala, o'quv jarayoni, ilmiy-uslubiy yondashuv.*

TEACHING SOVIET-ERA HISTORY IN HISTORY EDUCATION DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE.

Kuchkorov Khamdambek

Samarkand State Pedagogical Institute

II-stage master's student, history major

Abstract. *This article describes the teaching of Soviet history in history during the years of independence. The teaching of Soviet history during the years of independence is considered one of the most complex processes. At the same time, the article also provides detailed information about the changes in the educational process during the years of independence.*

Keyword, *Soviet era, colonial policy, history, democratic changes, social issue, educational process, scientific and methodological approach.*

Mustaqillikning dastlabki yillarida sodir bo'lgan o'tish jarayonida demokratik siyosiy tizim va bozor munosabatlari, erkin tadbirkorlikka asoslangan rivojlanayotgan iqtisodiyotni barpo etish bilan bir qatorda ijtimoiy munosabatlar tizimini yaratish va uni ta'lim-tarbiya jarayonlariga joriy etish uchun eng samarali va maqbul yo'l va vositalarini ishlab chiqishni taqozo etardi. Mustaqillikning dastlabki yillarida davlat va jamiyatni demokratlashtirish yo'lida dadil qadam tashlagan O'zbekistonning ijtimoiy-madaniy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar jarayonlarining chuqurlashishi tarix fani va uni o'qitish tizimini zamonaviy dunyo talablari asosida qayta yo'naltirishga xizmat qildi. Mustaqillik yillarida tarix fani o'qitilishidagi dastlabki to'siqlardan biri bu sovet davri tarixini, va umumam vatan tarixini qay tarzda o'qitish jarayoni turar edi. Sovet

davrida eng qadimgi davrlardan to XIX asr ikkinchi yarmigacha bo'lgan tariximiz soxtalashtirilgan edi..

Birinchi Prezidentimiz I. Karimov bu haqda: «O'zbekistonning o'zbek xalqini buyuk keng ommaga yetkazishga arzigulik haqqoniy tarixi yaratildimi, yo'qmi? Sovet davrida yozilgan tarixni men tarix sanamayman, o'zgalar yozib bergan tarixni o'qitishga mutlaqo qarshiman, mustamlakachilik tuzimiga qurbon bo'lgan xalq haqida qachon xolis, adolatli fikr aytgan? Ular bor kuch-g'ayratlarini Turkistonni kamsitishga, bizni tariximizdan judo qilishga sarflaganlar. Tarixdan judo bo'lish nimaligini yaxshi bilsangiz kerak. Inson uchun tarixdan judo bo'lish – hayotdan judo bo'lish demakdir», – deb juda ulug'vor g'oyani ilgari surdilar. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida chor Rossiya hukmronligi davrida Turkistonda mustamlakachilik siyosati kuchaydi. Mahalliy xalqni xo'rlash, qatag'on etish Sho'rolar davrida yanada kuchaydi. Shu tariqa Turkistonda mustaqil davlatchilikni paymol etish, til, madaniyat va urf-odatlar va milliy qadriyatlarni yo'qotishga harakat qilgan mustabid tuzum 130 yil hukmronlik qildi. O'zbekistonning mustaqil davlat deb e'lon qilinishi O'zbek xalqining ma'naviy va madaniy hayotida butunlay yangi bir davrni boshlab berdi. Shu boisdan ham “O'zbekiston xalqining tarixiy o'tmishi” fani yoshlarimizga ta'lim-tarbiya asoslarining davr talabi darajasidan olib borilishi ahamiyat kasb etadi.

Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimovning 1997-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining IX sessiyasida so'zlagan nutqida: “...Darsliklarda milliy fikrlash, millat taqdiriga va millat mafkurasining eng ilg'or namunalari aks etishi kerakligini ta'kidlagan edi. Aynan mana shu sessiyada Kadrlarni tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi. Sovet davrida 1943-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasi qoshida Tarix instituti tashkil etildi va u yerdagi olimlar tomonidan qator ilmiy asarlar darsliklar, dasturlar chop etildi. Xususan “O'zbekiston SSR tarixi” yaratildi. Lekin mustaqillikka erishganimizdan so'ng bu tarix qoralandi va olimlar orasida Sovet davri tarixining haqiqiy manzarasini tasvirlovchi fikrlar asosida ilmiy asarlar yaratilishi lozim deb hisoblaydigan fikrlar keng tarqaldi. 1998- yilda muallif Bo'riboy Ahmedov, tarix fanlari doktori, professor Qamariddin Usmonov maxsus mualliflardan darslikning uslubiy tuzilishlarini bajargan Jumaboy Raximovlar hamkorligida birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ilgari surilgan tamoyillar asosida 5-9 sinf o'quvchilari uchun “Vatan tarixi” darsliklari, metodik qo'llanmalar, o'quv qo'llanmalar yaratildi. Darsliklarning metodik ko'rsatmalar asosida yaratilganligi fan darsliklari tizimini shakllantirishdagi asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Tarix darsliklarining yaratilishi tarix fanidagi ilk marotaba 1994-yilda va 1996-yilda bir guruh tarixchi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan hamda bugungi kunda amaliyotda o'z ta'sirini birmuncha yo'qotgan, davr talabiga hamohang bo'lmagan “O'zbekiston tarixini o'qitish va o'rganishning yagona konsepsiyasi”dagi ilmiy-nazariy noaniqliklarga ham javob bo'lib xizmat qildi.

Mustaqillikning dastlabki yillari rivojlanish nuqtai nazaridan tarix fani uchun birmuncha og'ir kechdi. Mustaqil davlat qurilishida u chinakamiga asos va tayanch bo'la olmadi. Buning sababi tarixchilar o'rtasida fikrlar mushtarakligi va haqiqiy birlikning yo'qligida edi. Yondashuvlarning turli-tumanligi, fikrlar tarqoqligi, tarixiy xususiyat, ya'ni qo'lda kitoblarimizni mustaqillik manfaati asosida emas, balki eskicha ish tartibi, keksa va yosh kadrlar o'rtasidagi zidiyat – bularning barchasi nafaqat zamon talabiga javob bermas, ayni paytda, umuman tarix fani rivojini to'xtatib qo'ygan edi. Xuddi shu vaziyatda 1998 -yilning iyun oyida birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov bir guruh yetakchi tarixchilar, olimlar va ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashdi. Ushbu uchrashuvda Prezident tomonidan tarixchilar oldiga katta va asosiy vazifalar qo'yildi:

- 1.O'zbekiston tarixini o'rganishning konsepsiyasi qanday bo'lishi kerak?
- 2.O'zbek xalqining kelib chiqishi va davlatchilik tarixini qanday o'rganish kerak?
- 3.Zamonaviy tarixchining qiyofasi qanday bo'lishi kerak?
4. O'zbek davlatchiligi tarixi qachondan boshlangan?

Qo'yilgan masalalarni hal qilish uchun tarix fanining metodologik asoslarini tubdan o'zgartirish zarur edi. Prezident suhbatidan keyin e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi qarori (1998 yil 27 iyul) tarix fanining vazifalarini strategik jihatdan o'zgartirish uchun asos bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Karimov I.A. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q”- T “Sharq”1998.
- 2.Karimov I.A. “O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li”-T.Sharq.1992.
- 3.T.Toshpo'latov,Y.G'affarov. “Tarix o'qitish metodikasi”-T. Turon-iqbol.2010.
- 4.Hamid Ziyoyev. Tarix- o'tmish va kelajak ko'zgusi”-T.G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.2000.
- 5.O'zbekiston tarixining dolzarb muammolariga yangi chizgilar. – T., 1999. – 87.
6. O'zbekiston tarixini o'qitish va o'rganishning yagona konsepsiyasi. – T: 1996.
- 7.Alimova.D.A История как история, история как наука. Т.И. Историческое сознание. – Т:«Узбекистан». 2008. – В. 261.